

RAHMONQULOV XOJI-AKBAR RAHMONQULONQULOVICH

HAYOT YO'LIGA NIGOH

Murodxonov Muhammadnur

Toshkent davlat yuridik universiteti,

Xalqaro huquq va qiyosiy huquqshunoslik fakulteti, 2-kurs

Annotatsiya: O'zbekiston Respublikasining sud-huquq tizimidagi katta ozgarishlarga sabab bo'lgan, huquqshunos olim Ramonqulov Xoji-Akbar Rahmonqulovich haqida so'z borar ekan, ularning fanga qo'shgan hissalarini e'tirof etishimiz lozim. Buning asnosida xususiy huquq(fuqarolik huquqi, xalqaro xususiy huquq) sohasida, ommaviy huquqning (xalqaro ommaviy huquq, ma'muriy huquq), fundamental huquq sohasidan konsitutsiyaviy huquq kabi muhim sohalariga o'zining hissasini qo'shgan. Hozirgi kundagi zamonaviy huquq sohalarining andozasini aynan ushbu akademik olim tomondan chizib berilganini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: Huquq, akademik, qonun, normativ-huquqiy hujjat, xalqaro huquq, xususiy huquq.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasi milliy huquqiy tizimi jamiyatning jo'shqin rivojlanayotgan ijtimoiy tizimlaridan biridir. Huquqiy tizimning taraqqiy etganlik darajasi, mamlakatdagi iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy vaziyat bilan bevosita bog'liq bo'lib, aholining siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatida namoyon bo'ladi. Nafaqat huquqshunoslар, balki barcha fuqarolarning huquqiy tizim to'g'risida muayyan tasavvurga ega bo'lishlari fuqarolik jamiyati barpo etish maqsadlariga erishish uchun nihoyatda muhimdir¹.

Aslida barcha davrlarda huquqiy bilimlarni o'zlashtirishga extiyoj yuqori darajada bo'lgan. Shu bilan birga huquq sohasida yetuk olimlarimizni xalqqa tanitish

¹ Одилқориев Ҳ.Т., Ўзбекистон давлати ва жамияти инновацион ривожланишининг хукукий жиҳатлари. Ўкув кўйлланма. – Т.: 2019

ham yuristlar oldidagi vazifalardan hisoblanadi. Yurist olimlarimizdan o‘z mehtat faoliyati bilan akademik darajasiga erishgan insonlarni, ularni mehnatlarini ilm-ziyo axliga tanishtirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ilmiy darajada yuristlardan akademik darajasiga erishgan va tarixda qolganlarni nomlarini yoshlarga tanishtirib o‘tamiz.

ASOSIY QISM

Shu o‘rinda, O‘zbekiston Respublikasida Fanlar akademiyasi 1943 yil 4 noyabrda tashkil etilgan. 2022 yil holatiga ko‘ra, u 40 dan ortiq ilmiy bo‘limlarni o‘z ichiga olgan. Akademianing uchta hududiy filiali — Qoraqalpog‘iston va Navoiy filiallari, shuningdek, Xorazm Ma’mun akademiyasi mavjud. O‘zbekistonda huquq sohalari bo‘yicha fanlar taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan olim, akademiklarimizdan biri Xoji-Akbar Rahmonqulovich Rahmonqulov hisoblanadi. Xoji-akbar Rahmonqulovich Rahmonqulov 1925 yil 9-fevralda Chimkent viloyati Sayram tumanida tavallud topgan. Huquqshunos olim, ikkinchi jahon urushi qatnashchisi hisoblanadi. Urushdan qaytgach, 1950 yilda Toshkent yuridik institutini tugatgan. 1950 yilda O‘zbekiston Adliya vazirligi boshqarmasida katta taftishchi vazifasida faoliyatini boshlagan. Shu davrdan keyin O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi Falsafa va huquq institutida aspirant, kichik ilmiy xodim, katta ilmiy xodim, sho‘ba, bo‘lim mudiri vazifalarida ishlagan. 1985 yildan 1991 yilgacha ushbu muassasada direktor bo‘lib ishlagan. 1970-yilda Yuridik fanlari doktori, 1990 yilda O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, 2000 yilda O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi akademigi darajalariga erishgan.

X.Rahmonqulov Konstitutsiyaviy komissiya a’zosi bo‘lib, mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasi loyihasining “Jamiyat va shaxs” bo‘limini tayyorlovi ishchi guruhiga rahbarlik qildi. Uning “Insonparvar davlat konstitutsiyasi” asari Konstitutsiyamiz ikkinchi bo‘limining mazmunini tashkil qiluvchi asosiy qoidalarga bag‘ishlanadi. Mazkur asarda shaxs va fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va burchlari bilan bog‘liq masalalarni yoritishda amaldagi qonunlar va xalqaro hujjatlarga asoslanildi.

O‘zbekiston Respublikasining 1995-1996 yillarda qabul qilingan Fuqarolik kodeksining konsepsiyasini va haqli ravishda “Bozor iqtisodiyotining konstitutsiyasi”

deb nisbat berilgan kodeks loyihasini tayyorlash ishlariga boshchilik qildi. Mazkur qonun loyihasi ustida ustozlarimiz X.Rahmonqulov, I.Zokirov, B.Ibratov, R.Muhamedov, I.Anortoyev, Sh.Asyanov singari fidoyi olimlar ishladi. “Bozor iqtisodiyotining konstitutsiyasi” loyihasining tegishli qismlari va normalarini muhokama qilish chog‘ida domlalar biz, aspirantlar va yosh o‘qituvchilarni taklif etgani va bunda dastlabki qonun loyihasini tayyorlash jarayonining ilmiy va amaliy jihatlaridan bizni bahramand qilganliklari, aslida esa qonun loyihasi ustida bunday sog‘lom muhokama, munozara o‘tkazilgani biz uchun katta bilim va mahorat maktabi bo‘lganini faxr bilan eslaymiz. Bunday tashqari, ustoz rahbarligida Oila kodeksi va iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi qator qonunlar loyihalari ishlab chiqildi.

Bugungi kunda ushbu normativ-huquqiy hujjatlar mamlakatimizning iqtisodiy-ijtimoiy rivojida muhim ahamiyat kasb etayotir. Ustozning tashabbusi va rahbarligi ostida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik, Oila kodekslariga, mulkchilik, tadbirkorlik to‘g‘risidagi va boshqa qonunlarga tayyorlangan sharhlar huquqni qo‘llash amaliyotiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatdi”². Ustoz ilmiy faoliyati, jonbozlik bilan huquq taraqqiyotiga qo‘sghan xizmatlarini e’tirofini cheksiz yozish mumkin.

Yozishlaricha xayotining so‘nggi davriga qadar huquqiy fanlarni taraqqiy ettirishni shogirdlarga o‘rgatgan ustoz 2013-yil 17-iyulida vafot etdi.

XULOSA

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, akademik faoliyat jamiyat rivojida muhim o‘rin egallaydi. Ilmiy tadqiqotlar va ta’lim jarayonlari orqali yangi bilimlar yaratilishi va rivojlanishi, mamlakatlarning raqobatbardoshligini oshiradi. Biroq, akademik sohada ham muammolar mavjud bo‘lib, ularning hal etilishi uchun innovatsion yondashuvlar va hamkorlik zarur. Ta’lim tizimini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish va akademik erkinlikni ta’minlash, kelajakda yanada yutuqlarga erishish uchun muhim ahamiyatga ega. Shu tariqa, akademik faoliyat nafaqat shaxsiy, balki umuman jamiyatning farovonligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi.

² Komil Rashidov. O‘zbekiston huquqshunoslarining sevimli ustozи Hojiakbar Rahmonqulovni xotirlab.
<https://zarnews.uz>

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. Одилқориев Ҳ.Т., Ўзбекистон давлати ва жамияти инновацион ривожланишининг хуқуқий жиҳатлари. Ўқув қўлланма. – Т.: 2019
2. Komil Rashidov. O‘zbekiston huquqshunoslarining sevimli ustozlari Hojiakbar Rahmonqulovni xotirlab. <https://zarnews.uz>
3. Шавкат Закариевич Уразаев: Материалы к биобиблиографии ученых Узбекистана. Ташкент, 1987.
4. История одного поколения. – Тошкент, «Шарқ», 2008, 220 стр. Авторы: III.Агзамходжаев, Н.Бокий